

## TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA SIFATNI TA’MINLASH USULLARI.

**Xalmirzayev Shavkatbek Kurbanovich**

*Assistent Andijon davlat texnika instituti, Andijon shaxar*

*E-mail: shavkatbek19670307@gmail.com*

*Tel: +998 94 703 67 69*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolamizda to‘qimachilik materiallarining sifatini to‘liq baholash uchun kompleks sifat ko‘rsatkichlarini to‘g‘ri tanlash kerak bo‘ladi. Uning uchun qandaydir bir ahamiyatli ko‘rsatkichlarni tanlab ketmaslik kerak, hamda bir vaqtning o‘zida kam ahamiyatli kompleksli ko‘rsatkichlarni yuklab, kuchaytirmaslik kerak. Standartdagi nomenklaturali jadvalida mavjudligi va katta guruhdagi mahsulot sifatini attestatsiyalash bo‘yicha ko‘rsatilganida, sifat ko‘rsatkichi minimal miqdorini tanlashni bir muncha qiyinlashtiradi. Shu sababli, guruhlar sonini kamaytirish uchun sifat ko‘rsatkichlarining sinflanishi keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *To‘qimachilik, standart, sifat ko‘rsatkich, kompleks, estetik ko‘rsatkich, gigienik ko‘rsatkich, o‘lchamli ko‘rsatkich, ko‘rsatkich, mahsulot, daraja, material, tola, mustahkamligi, cho‘ziluvchanligi, elastikligi, tovush yutiluvchanligi, elektr qarshiligi, elektrlanuvchanligi.*

**Аннотация.** *Чтобы полностью оценить качество текстильных материалов в этой статье, необходимо правильно выбрать комплексные показатели качества. Для этого не нужно выбирать какие - то значимые показатели, а также усиливать их. При указании в номенклатурной таблице стандарта наличия и аттестации качества продукции в большой группе несколько затрудняется выбор минимального показателя качества. Поэтому для уменьшения количества групп предусмотрена классификация показателей качества.*

**Ключевые слова:** *ткацкий, стандартный, качественный, комплексный, эстетический, гигиенический, объемный, показатель, продукт, уровень, материал, волокно, прочность, эластичность, звукопоглощаемость, электрическое сопротивление.*

**Abstract.** *To fully assess the quality of textile materials in this article, it is necessary to choose the right complex quality indicators. To do this, you do not need to choose any significant indicators, as well as strengthen them. When specifying the standard for the availability and quality attestation of products in a large group in the nomenclature table, it is somewhat difficult to select the minimum quality indicator. Therefore, to reduce the number of groups, quality indicators are classified.*

**Keywords:** *weaving, standard, quality, complex, aesthetic, hygienic, volumetric, indicator, product, level, material, fiber, strength, elasticity, sound absorption, electrical resistance.*

To‘qimachilik korxonalarida sifatni ta‘minlash usullari va unga ta‘sir etuvchi omillar.

Sifat ko'rsatkich—materialning ko'rsatkichlari va xossalari bo'lib, sifatni baholashda me'yoriy talablarga javob beradi. Standart va texnik shartlarda material sifatini baholashda tuzilish ko'rsatkichi, tola tarkibi bo'yicha sifat ko'rsatkichlari me'yorlanadi. Tuzilish ko'rsatkichi va tarkibi sifat ko'rsatkich darajasiga ta'sir etadi. Barcha keltirilgan ko'rsatkichlarni birga qo'shgan holda «standart ko'rsatkichi» deb ataladi.

To'qimachilik materiallarining sifatini to'liq baholash uchun kompleks sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri tanlash kerak bo'ladi. Uning uchun qandaydir bir ahamiyatli ko'rsatkichlarni tanlab ketmaslik kerak, hamda bir vaqtning o'zida kam ahamiyatli kompleksli ko'rsatkichlarni yuklab, kuchaytirmaslik kerak.

Bir qator standartlarda sifat ko'rsatkichlarining tartibi keltirilgan bo'lib, turli to'qimachilik materiallari uchun texnikaviy shartlarni yaratishda me'yorlashni taklif etadi.

Sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasi va sinflanishi GOST 22851-77 standartida batafsil berilgan bo'lib, unda mahsulotning qo'llanilishi, mustahkamligi, chidamliligi, ishlatilishi, saqlanishi, sozlashga moyilligi, ekologiyaga zararsizligi, inson sog'ligi uchun xavfsiz bo'lish kerakligi keltirilgan.

Sifat ko'rsatkichlarining nomenklaturasi va sinflanishida quyidagi ko'rsatkichlar keltiriladi:

- barcha turdagi mahsulot uchun majburiy;
- mahsuslashtirilgan, bir necha turkum mahsulot uchun umumiy;
- mahsuslashtirilgan lekin, ayniqsa mahsulotni ishlatish doirasida majburiy emas.

Standartdagi nomenklaturali jadvalida mavjudligi va katta guruhdagi mahsulot sifatini attestatsiyalash bo'yicha ko'rsatilganida, sifat ko'rsatkichi minimal miqdorini tanlashni bir muncha qiyinlashtiradi. Shu sababli, guruhlar sonini kamaytirish uchun sifat ko'rsatkichlarining sinflanishi keltirilgan.

### **Sifat ko'rsatkichlar beshta asosiy guruhlarga bo'linadi.**

**1.E'tiborli ko'rsatkichi.** Ular to'qimachilik materiallarining e'tibori va uning qo'llanilishini to'g'ri va ratsional aniqlaydi. Bu juda muhim ko'rsatkichlar guruhi bo'lib, birinchi marta kompleks me'yoriy xossalarni tanlashda ayniqsa har tomonlama tahlil etib beradi. E'tiborli ko'rsatkich o'z navbatida to'rtta guruhlarga bo'linadi:

- a) estetik ko'rsatkich (rasmi, guli, rang beruvchanligi, oppoqligi, yaltiroqligi va boshqalar);
- b)gigienik ko'rsatkich (suv o'tkazuvchanligi, xavo o'tkazuvchanligi bug' o'tkazuvchanligi issiqlikka qarshiligi, suvga chidamligi va boshqalar);
- v) o'lchamli ko'rsatkich (polotno eni, buyum chizishning o'lchami, qalinligi va boshqalar);
- g) texnik ko'rsatkich (mustahkamligi, cho'ziluvchanligi, elastikligi, tovush yutiluvchanligi, elektr qarshiligi, elektrlanuvchanligi va boshqalar).

**2.Ishonchlilik ko'rsatkichi.** Belgilangan oraliqda material vaqt davomida o'z xossalarni saqlab qolishi bo'lib, uni normal ishlatilishini ta'minlaydi. Bu guruh. ko'rsatkichlari birinchi guruh kabi to'rtta guruhlarga bo'linadi:

- a) estetik ko'rsatkich (rang va oqlikning chidamligi, g'ijimlanmasligi va boshqalar);
- b) gigienik ko'rsatkich (o'tkazuvchanligi, issiklik o'tkazuvchanligining o'zgarishi va boshqalar);
- v) o'lchamli ko'rsatkich (shaklan chidamligi, turli ta'sirlarga kirishishi va boshqalar);
- g) texnik ko'rsatkich (normal ishlatilish muddati, ko'pga chidamliligi, ko'p marotabalik deformatsiyadagi chidamliligi, yemiruvchi turli omillarga chidamliligi, mustahkamligining o'zgarishi, elastikligi, chokining mustahkamligi va boshqalar).

**3. Nuqsonli ko'rsatkichi.** Sifatning negativ ko'rsatkichi bo'lib, ishlatilmagan materiallarda yangi nuqsonlarning hosil bo'lishini harakterlaydi. Negativ sifat ko'rsatkichi to'qimachilik materiallarining navini baholashda ishlatilish davrida hosil bo'ladigan nuqsonlari keng qo'llaniladi.

**4. Texnologik ko'rsatkichi.** To'qimachilik materiallarining qayta ishlanishi uchun yaroqliligini aniqlaydi. Bu polotnning qalinligi, eni, bikrligi, friksion xossalari, cho'ziluvchanligi, elastikligi va boshqalardir.

**5. Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichi.** Bu guruhdagi ko'rsatkichda to'qimachilik materiallarining narxi bilan belgilanadi (material sig'imi, polotno eni va boshqalar).

So'ngi yillarda respublikamizda ham xalqaro standart talablari asosida sifat menejment tizimlarini joriy etib, sertifikatlashtirilgan korxonalarni rag'batlantirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar qabul qilindi. Ushbu tadbirlar sirasiga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etib, sertifikatlashtirishni rejalashtirgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarda iqtisod qilish imkonini beruvchi imtiyozlar va chegirmalar kiradi.

Sifat menjment tizimini O'zbekiston kompaniyalarida joriy etilishining foydali, bir qator omillarini sanab o'tish mumkin:

**Birinchidan,** ISO 9000 sertifikati tashqi bozorda ishlaydigan kompaniyalarga zarur. Ba'zi hollarda uning mavjudligi tenderda ishtirok etishda muvaffaqiyat keltiradi, ya'ni tenderning majburiy shartlaridan biri bo'lishi mumkin. U kompaniyaning sifat g'oyalariga sodiqligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, shuning o'zi bilan kompaniya obro'si oshadi. Sertifikatni yo'qligi yoki eksport mahsulotning narhini keskin tushishi yoki umuman shartnomadan voz kechishga olib kelishi mumkin.

**Ikkinchidan,** ISO 9000 sertifikati kompaniyaga chet el investorlarini jalb etadi. Bu kompaniyalarni aksiyalashtirish, aksiyalarni sotish va qo'shma korxonalarni tashkil etishda ham, aniq loyihaga mablag'larni jalb qilishda ham qo'llanishi mumkin. Sertifikatning mavjudligi investitsion xatarlarni kamaytirish omili bo'lib ham xizmat qiladi.

**Uchinchidan,** SMT ning ISO 9000 talablariga mosligini tasdiqlovchi hujjatning mavjudligi mijozlar, ta'minotchilar, raqobatchilar, davlat organlari kabi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar o'rtasidagi kompaniya mulkini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Ushbu afzalliklar bilan kompaniya ishidagi ichki unumdorlikni oshirishga bog'liq chora – tadbirlarining amalga oshirilishi nazarda tutiladi.

Viloyatdagi to'qimachilik korxonalarida xalqaro standartlarga mos keladigan sifatni boshqarish tizimlarini joriy etgan korxonalar uchun qator imtiyozlar berilmoqda. Bu birinchi galda soliq imtiyozlar bo'lib, bunda foyda solig'i hisoblanishida yuridik shaxslarning soliq solinadigan foydasi miqdori sifatini boshqarish tizimlarini joriy etishga yo'naltirilgan investitsiyalar summasiga kamaytiriladi.

Xalqaro standartlarga mos keladigan SMTni joriy etgan to'qimachilik korxonalari O'zbekiston respublikasi hududida mahsulotning laboratoriya tadqiqotlari va testlarini o'tkazishda foydalaniladigan jihozlar va ularga butlovchi mahsulotlar hamda ehtiyot qismlarini olib kirishda bojxona to'lovlari va qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan ozod etiladi.

Xozirda viloyatimizdagi to'qimachilik korxonalari xalqaro talablarga muvofiq sifat menejment tizimini joriy etish orqali o'z mavqeini ko'tarmoqda, unumdorligi va daromadlarini oshirmoqda va natijada ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligi ortib bormoqda.

Mintaqadagi ilg'or zamonaviy to'qimachilik korxonalar tajribasi ko'rsatmoqdaki ISO asosida sifat menejment tizimini joriy etish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va bozor sharoitida barqaror faoliyat ko'rsatishining muhim sharti bo'lib, korxonlarga juda ko'p afzalliklar beradi.

- korxonada ishchan muhit qaror topishini ta'minlash;
- korxonada boshqaruv malakasi, ishlab chiqarish madaniyati, texnologik intizomni yaxshilash;
- yangi bozor imkoniyatlarini ochilishi va amaldagi sotuv bozorlarini saqlab qolinishi;
- mavjud va potensial iste'molchilarda korxona imkoniyatlariga ishonchni mustaxkamlash;
- korxonalarni samaradorligini oshirish, ishda aniq muvofiqlashtirish;
- korxona mahsuloti yoki xizmatlari sifatini iste'molchilar tomonidan belgilangan yoki qutilayotgan talablarga muvofiqligiga erishish va ushlab turish;
- yirikroq korxonalar bilan musobaqalashish imkoniyati (ya'ni maqbul narxlar taklif qilinishi yoki narxlarni ushlab turish);
- sifat boshqaruvi tizimida amalga oshiriladigan yangi bozor mexanizmi sifatli mahsulot tayyorlashni ta'minlash va o'zaro shartnomalarning to'liq bajarilishida iste'molchilar ishonchini yanada oshirish;
- resurslardan unumli foydalanishni ta'minlash, korxona faoliyatini takomillashtirib, mahsulot sifatining yaxshilanishiga olib kelish va iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'tarilishi, sog'lom ish muhiti shakllanishi va mutaxassislar yakdilligi va izlanuvchanligini ta'minlash;
- ishlab chiqaruvchi tomonidan sifatli va xavfsiz mahsulot barqaror ishlab chiqarilishi uchun barcha shart-sharoitlar ta'minlash;
- mahsulotlardan iste'molchilar qoniqishini ta'minlash, xodimlarning xavfsiz mehnat sharoitini yaratib berish, xavf va ziyonni minimal darajaga keltirish, korxonani atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini kamaytirish va doimiy nazorat qilish.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimbaev Ye.Sh. To'qima tuzilishi nazariyasi. –Toshkent: Aloqachi, 2005.- 231 b.
2. Abbasova N.G., Maxkamova Sh.M., Axmedov B.B., Ochilov T.A. Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi. Toshkent, «Aloqachi», 2005
3. Ochilov T.A., Matmusaev U.M., Qulmetov M.Q. To'qimachilik materiallarini sinash. «O'zbekiston». Toshkent, 2005.
4. GOST 3811-82. To'qimachilik matolari. Matolarning chiziqli o'lchamlari va massasini aniqlash uslubi.
5. GOST 3812-82. To'qimachilik matolari. Matolarning tanda va arqoq yo'nalishi bo'yicha zichligini aniqlash uslubi.
6. GOST 3813-82. To'qimachilik matolari. Matolarning cho'zilishdagi uzilish xususiyatlarini aniqlash uslubi
7. A.M.Tursunov, Sh.R.Marasulov va boshqalar. "To'qimachilik va tikuvchilikdan ruscha - o'zbekcha atamalar lug'ati", T. "O'qituvchi" nashriyoti.